

## TANISHUV

(yoki yeng ichidagi tug'ruqxona)

Shaharning huv... chekkasidayammas, qoq o'rtasidayammas, maqtarli boyammas, bechorahol kambag'alammas, aytarli serbolayammas, qaytarli kambolayammas — bir xonadonda Shaytonvachcha dunyoga keladigan bo'p qopti. O'zi shu... shaytonvachchalarning dunyoga kelishi g'alatirog'am ekan-da! Bir qaraganda ko'z og'rig'idek gap ekanu, bir qarasangiz ja mashaqqatam ekan. Oллоh bilan do'stlashgan xonadon bo'lsa... ko'payish uyoqda tursin... jonlari erta-yu kech quv-quvda ekan. Aliakaninig itidek hakillab, ozib-to'zib yurisharkan. Oллоh bilan urushgan, shayton bilan topishgan xonadon bo'lsa-chi... voy bo'-o'-o'... bir-biriga yopishib, og'iz-burun o'pishib, ko'payishda cho'chqaniyam aro yo'lda qoldirarkan.

O'zi bu dunyoga kelayotgan shaytonvachchaning peshonasi sal sho'rrog'am ekan-da. Haligi tolei past deyishadi-ku... Bo'lmasa u tug'iladigan xonadonning Hojasi unaqarog'u, Hojabekasi bunaqarooog' bo'ladimi? Qanaqarooog' deysizmi?

Xonadonning Hojasi endigina Oллоh yo'lga kirganlardan, Hojabekasi bo'lsa kirsammi-kir-masammi deb yo'l boshida turib qolganlardan ekan.

Shu xonadonda yashayotgan ona shaytonning bo'lsa oy-kuni yetib, qorni kajavadek bo'lib, ja

bo'lmay borarkan... Oxiri nima qilarini bilmay timirskilanib, Hojaning chap qo'yniga kirib bo'ribdi. Shayton o'zi hamma ishni chapdan boshlar ekan-da! Keyin odamzodning biron-bir yeriga tegib turmasa to'lg'og'i tutmas ekan. Shungami so'rg'ichsiz turolmagan boladek odamga yopishgani-yopishgan ekan. Mana hozir ham ko'zlari suzilib:

— Oh-voheyyy, sal besaranjomligini aytmasa Hojaning shu qo'yni ja maza joy-da, — deb qo'ydi. Ammo shayton bosqinidan bezovtalan-gan yurak dedi:

— Ha, yoqmay ketsin, ko'tar tovuq sho'r-vangni ustimdan...

— E-e-e... shaytonlarning ishiga aralashmay bir pas jim tursang-chi, bu tovuq sho'rvamas, galvars, — yurakka malomat qildi shayton.

Yurak hali shunaqami dedi-yu, nozik joyiga ikki marta o'xshatib tepkan edi, ona shayton qandoq qilib issiq joyidan uchib chiqqanini bil-may qoldi. Bir zum yana nima qilarini bilmay qornini quchoqlab turdi-da:

— Eee, chap qo'yin bo'lmasa o'ng qo'yin ham bo'laveradi, — deb Hojaning o'ng qo'yniga qarab o'rmaladi. Bunisi unisichalik bo'lmasa-da har tugul iliq-issiqqina ekan.

— Voyyyy, — dedi ona shayton og'zi yoyi-lib, — dunyoda bunaqa jim-jit hilvat joylaram bor ekanu... Shaytonlar odatda bolasini og'zidan tug'ishar ekan. Achavat xolalar «Ha bolang og'zingdan kelsin», deb bir-birlarini qarg'ash-ganida shaytonni nazarda tutishar ekan-da! Shundoq qilib ona shaytonning to'lg'og'i tutib, endi o'qchiy deb tursa, tagidan bir hid ko'tari-libdiki, naq bo'g'ilib, o'lay deпти.

— Hooo, — dedi jigar tovlanib, — nima, sen bu yerni o'g'ri urgan bog' deb o'ylovdigmi, o't qopim shundog'am to'lib yotibdi, tezroq qorangni o'chirmasang hozir bola-molang bilan bo'g'ib asfalasofilinga jo'nataman.

Ona shayton asfalasofilin nimaligini juda yaxshi bilardi. U do'zaxning eng tagi edi. Bay-baylab, voy-voylab bu yerdanam juftakni rostlabdi.

To'lg'oq ustiga to'lg'oq tutib, Hojaning atrofiga gir-gir aylanaverdi. Bundoq diqqat qilsa Hojaning cho'ntaklari bo'shmish.

— Eyyy, qo'yin bo'lmasa cho'ntak ham bo'lovradi, — deb chap cho'ntakka suqilgan edi, chap qo'l yo'l bermadi, ha, gurzidek bo'lib boshiga tushdi, o'ng cho'ntakka mo'ralagan edi, u yerdanam musht yedi.

— Ana xolos, endi nima qildim, — deb borgan sari nafasi qisib, ko'zlari orqaga ketib turgan edi, Hojabeka baxmal xalatini kiymasdan nozik yelkalariga tashlab, mayda qadam bilan hovli etagiga ravona bo'p qoldi. Buni ko'rgan Hoja Hojabekaga tanbeh berdi:

— Bu nima qiliq, bekam, axir necha marta aytaman xalatning yengini kiyib yuring, bo'lmasa shayton bolalaydi deb. Shundog'am xira pashshadek jonga tegib yotibdi u...

— E, qayoqdagi gaplarni topasiz-da dadasi, shayton o'lgurni bundan boshqa qiladigan ishi yo'qmi, — g'udrandi Hojabeka.

— O'h, — dedi ona shayton suyunganidan chapak chalib, — axir o'zimam bir vaqtlar yeng ichida dunyoga kelgan edim-ku, esdan ko'tarilgani-chi, e, yashavor-e dono Hojam... mana endi yeng ichida ish bitiramiz-da, hozir...

Ona shayton g'uv etib, yeng ichiga kirdi. Yeng ichlari bib-binoyidek, ikki o'rim sochdek, Hojabekaning ikki biqiziga tegib turar, issiqqina emish. Ona shayton fursatni boy bermay «do'ng'g'g'» ettirib shosha-pisha tug'di-qo'ydi. Quloqqa yoqimsiz bu g'alati ovozdan Hojabeka hayron bo'ldi. Uyoq-buyoqqa alanglab, nimagadir o'zidan-o'zi qizarib ketdi. Buni kuzatib turgan ona shayton dedi:

— Xijolat bo'lmasinlar Hojabekam, xijolat bo'lmasinlar, u beo'xshov ovoz bizdan chiqdi, bizdan. Uchta bolangiz to'rtta bo'ldi, ha, Shaytonvachcha muborak! He-he-heee...

## **SABOQ**

**(yoki shaytonning yarim ovqatga sherik bo'lishi)**

Shu desangiz shaytonvachchalar odatda bo'ynida qoshig'i bilan tur'ilar ekan. Ularning katta-yu kichik martabalarियam, uzun-qisqa unvonlarियam, o'tkir-o'tmas qurollarियam shu qoshiqlariga qarab bo'larkan. Shaytonvachchanning qoshig'i qoshiq emas, naq o'n ikkinchi no'g'ay kalishning o'zi ekan.

— Voy-bo'o'o, — dedi ona shaytonning ko'zlari ola-kula bo'lib, — men bola emas, butun boshli qoshiq tug'ibman-ku.

U shunday deb peshonasini tirishtirib turganda Shaytonvachcha onasining qorniga o'xshatib turib shundoq tepdiki, ona shaytonning hamma yog'i shaqillab ketdi.

— Voy-voyey, — deganicha ona shayton ikki bukchayib qoldi. Keyin ingranib dedi:

— Turgan bitganing qoshiq desam, tuyog'ing zormondayam bor ekan-ku baloning o'qidek. Bahay, bahay, ota-bobolarimiz bir tuqqanning, bir to'ydirganning qorniga tep deyishgan, durust, durust, tarki odat — amri mahol deydi-lar buni...

Shaytonvachcha ota-bobolarining odatlaridan birini o'xshatib o'rinlatgach, ko'z soqqasini o'ynatib, «xushshsh» ettirib hushtak chalib yubordi.

— Ovvv, — dedi ona shayton battar hayrati oshib, — bu deyman tiliyam hushtak bilan chiqdiku-a, hushtak bilan, buyog'iyam chakki-mas, qilg'i qoshig'iga yarasha...

Keyin Shaytonvachchani erkalatib dedi:

— Odam bolalarini qanchalik hushtakvoz qil-sang, shunchalik befarishta bo'lishadi. Farish-tasiz odamda iymon bo'lmaydi. Iymonsiz odam do'zax o'chog'iga tayyor o'tin-da, girgitton.

— Ona, — dedi Shaytonvachcha yutinib, — iymonni yesa bo'ladimi?

— Dard, xayolingayam keltirma yeyishni.

— Do'zaxning o'tini yeb bo'ladimi?

— Hah nafsing chukullamay o'lsin, qorning ochganga o'xshaydi-a? Sabr qil, sabr. Odam bo-lalariga o'xshab bezbet bo'lma...

— Kim u odam bolalari?

— Odam bolalarimi, ular bizning g'irt dush-manlarimizdir. Ularni qanchalik yo'ldan ursang, anovi yog'och qoshig'ing shunchalik yog' ichi-da o'ynaydi, ha, yog' ichida.

— Ona deyman bu dunyoda do'stlarimiz bormi?

— Bor-da, bo'lganda qandoq.

— Kim u do'stlarimiz, ayt-da bundoq!





— Kim bo'lardi, odam bolalari-da!

— I, kallang joyidami, ona, hozir ularni dushmanimiz deding-ku, — hayron bo'ldi Shaytonvachcha.

— Voy kallalik kallasiz-yey, odam bolalarini yo'ldan urganingdan keyin ular senga dushman emas, do'st-da, uqdingmi, haftafahm?

Ona shayton shunday deb Shaytonvachchanning quloq-chekkasiga sharaqlatib qo'yib yubordi.

— Uqdim, uqdim, — dedi Shaytonvachcha shosha-pisha tarsakidan ko'kargan yuzini silab.

Shu payt Hojabeka dasturxon yozib, nushtaga hozirlik ko'ra boshladi.

— Endi bir pas javramay tek tur, — dedi ona shayton Shaytonvachchaga, — men seni do'stu, dushmanlarimiz bilan tanishtiraman.

— Xo'p bo'ladi, ona, javrama desang javramayman.

— Yaxshilab qara, anovi dasturxon tuzayotgan kelishgan xotin Hojabeka bo'ladi. Bilib qo'y: u mening do'stim bo'ladi, do'stim! Baraka topsin, shu xotin bor ekan, ichinga issiq tushib turadi. Och-nahor qolmayman. Bilsang u sening doyang ham bo'ladi. O'shaning yengida tug'ilding. Endi hov anovi orom kursida tasbeh o'qirib o'tirgan sip-silliq odamni ko'ryapsanmi?

— Ko'ryapman ona, ko'ryapman, ja yuzlari nurlik-ku a?

— Dard, yuzlari nurlimish, dushmanim bo'ladi u, mening dushmanim!

— E attang, do'st qilib bo'lmaydimi uni, ona?

— Ilgarilari bib-binoyidek do'stim edi. Unda qo'llari tasbehmas, nuqul pora o'girib o'tirardi,



pora! Nima bo'ldi-yu, Olloh yo'lga kirib, mendan yuz o'girdi, nomard. U uyning hojasi — boshlig'i, kattasi bo'ladi...

Shu payt Hoja qo'shni uyda chug'ur-chug'ur qilayotgan bolalarini chaqirib qoldi. «Labbay adajonlab» bolalar ham ro'parasida qo'l qovush-tirishdi. Hoja ularga mehr bilan tikildi-da:

— Qani asaltoylar, Bismillahir rohmanir rohiym deb, nonushtaga o'tiringlar-chi, dedi.

Ona shayton bilan Shaytonvachcha xonaning chap burchagida o'tirishgan edi, qandaydir kuch ikkoviniyam devorga tappidek yopishtirib tashladi.

— Voy bo'o'o', bu nimasi ona? — inqrab yubordi Shaytonvachcha.

— Karmisan, eshitmadingmi? Ollohning ismi shunaqa qudratli bo'ladi. Chida, hozir o'tib ketadi.

— Immm...

— Tishingni tishingga qo'y, odam bolalariga o'xshab bardoshsiz bo'lma, chida!

— ...

— Qalay, o'tib ketdimi? O'zingga kep qoldingmi?

— Bilmadim...

— Endi hushyor bo'l, agar bolalar otasining aytganini qilib, Ollohning ismi bilan dastur-xonga qo'l cho'zishsa, bilki, bu och qolganing.

— Iye, bu nima deganing ona, hali tug'ilganimdan beri ichimga tariqdek narsa kirmadiku, gaplaring qiziq...

— Hozir bir iloj qilamiz... xo'shsh, hov anovi papkani ko'ryapsanmi, ichi to'la kitob, daftar?

— Koryapman, ona, ko'ryapman.

— Ko'rayotgan bo'lsang o'sha zormonda omonatgina turibdi, bolalarning kattasi dasturxonga kelishi bilan uni tushirib yuborasan, vassalom. Bola alahsiydi va Oллоhning ismini unutadi. Endi anovi po'stinchani ko'ryapsanmi?

— Ko'ryapman, ko'ryapman...

— Ilgagida zo'rg'a ilinib turibdi. O'rtanchasi dasturxonga yaqinlashganda borib osilasan-da uniyam tushirib egasini chalg'itasan. Endi yana bittasi bor... hali u kichkina, Oллоhning ismini aytolmaydi... Shunday qilib, qarabsanki, bolalar yeydigan ovqatning yarmiga sherik bo'p turibsan-da.

Hammasi ona shayton aytgancha bo'ldi. Chindanam aka-ukalar alahsib Oллоhning ismini unuttishdi. Shaytonvachcha beo'xshov qoshig'ini ko'tarib aka-ukalarning o'rtasiga tushdi. Hali unisining, hali bunisining tovog'iga qoshiq solib, nasibasini yarimta qildi. Rosa bo'kib yedi. Ammo ona shaytonning qorni hushtak chalgancha qolaverdi. Nimaga deganda Hoja bilan Hojabeka Oллоhning ismini aytib dasturxonga qo'l cho'zishgan edi-da! Ona shayton ularning ovqatlariga sherik bo'lolmadi.

Shaytonvachcha beo'xshov qoshig'ini yalab, gungursdek bo'lib, onasining yonida paydo bo'ldi. Ona shayton bo'lsa hech narsadan hech narsa yo'q uning quloq chekkasiga qarsillatib sop qoldi-ku...

— Nima-e, — jon-poni chiqib ketdi Shaytonvachchaning, — och qolganingga alammi?!

— Ha qorning to'yib, qayg'ung arimay o'lsin. Miyangni darrov yog' bosdimi, esi past, odatimiz-chi, odatimiz? Ota-bobomiz to'ydirganning qorniga tep demaganmidi?

Shaytonvachcha aybiga iqrор bo'lib, yerga qaradi va g'izillab borib aka-ukalarning qorniga ayamasdan sharaqlatib bittadan tepib chiqdi. Uchchoviyam birin-ketin «voy qornim»lab bukchayib qolishdi.

Bu holdan Hoja dag'-dag' titrab Hojabekaga o'shqirib qoldi:

— Nechchi marta aytaman senga bog'chadagi bo'lar-bo'lmas ovqatlarni obkema deb. Mana ahvol...

— Og'zingizga qarab qapiring, adajonisi, — bobillab berdi Hojabeka, — men bog'chada farrosh bo'lib ishlamayman, Xudoga shukr mudiraman, ob kelsam ovqatlarning gulini ob kelaman!

— E, guli deydi-ya... «Birovning haqi qorin og'ritar» deganlarini eshitmaganmisan...

Shunday qilib ertametangi nonushta Shaytonvachchanning biqqidek bo'lib to'yishi-yu, Hoja bilan Hojabekaning jiqqa-musht bo'lishi-yu, aka-ukalarning qorinlari og'rib qolishi bilan yakun topdi.

## **YANA BIR SABOQ**

**(yoki Shaytonvachchanning qandoq qilib bolalarning o'yinchog'ini tortib olgani)**

Aka-ukalarning kattasi maktabga, qolgan ikkitasi Hojabeka bilan bog'chaga, Hoja ishga ketib, uy huvillab qoldi.

Shaytonvachcha ancha vaqt onasining oldida qoshig'ini o'ynab, tishini kavlab o'tirdi-yu,

oxiri zerikdi. Beo'xshov og'zini katta-katta ochib esnab qo'ydi.

— Ha zerikdingmi? — so'radi ona shayton.

— Zerikdim, juda zerikdim, — ko'zlari yiltillab ketdi Shaytonvachchaning.

— Qani yur bo'lmasa...

Ona shayton shunday deb uni tashqariga boshladi. Ko'chada bir to'p bola koptok o'ynashardi.

Shaytonvachchaniyam ichi qizidi.

— Anovilar bilan o'ynayman, — dedi Shaytonvachcha bolalarga ishora qilib.

— O'ynasang o'ynayqol, — beparvogina javob berdi onasi.

Shaytonvachcha zum o'tmay bolalar orasiga qo'shib ketdi. Uniyam bolalar quv-quv qilib yurgan koptokni tepkisi keldi. Biroq oyog'iga ha deganda koptok tegavermadi. Endi tepaman deganda bolalar chaqqonlik qilib ilib ketadi. Buyam yetmaganday bir-ikki marta koptokka qo'shib uniyam «koptok» qilib yuborishdi. Oxiri u horib-charchab abjag'i chiqib onasining yoniga keldi. Ona shayton hammasini ko'rib, bolasining uquvsizligidan kulib o'tirgan edi.

— Qalay, maza qilib o'ynadingmi? — so'radi jo'rttaga.

— E, koptoklarini bir martagayam berishmadi, nokaslar, — g'ingshidi Shaytonvachcha.

— Koptok seniki bo'lib qolishini xohlaysanmi?

— Xohlayman, qaniydi-ya, — dedi Shaytonvachcha yer tepinib.

— Unda quloq sol. Hov anovi bolani ko'ryapsanmi? Ja koptokni pildiratishga usta ekan-a!

— O'sha-da koptokni menga bermagan, ona!

— Endi hov anovi bolaniyam ko'ryapsanmi, senga o'xshab shalviraganroq, uyam oyog'iga koptok tegmaganiga yig'lavoray-yig'lavoray deyapti.

— Ko'rdim, ona, ko'rdim!

— Borgin-da o'sha bolaning qulog'iga shivirla, to'p bermaganning oyog'iga tep de, ha!

Shaytonvachcha onasining aytganini qildi. Haligi bola o'yinchi bolaning oyog'iga shaqilatib tepdi. Bola paqir to'nkarilib tushdi. Bo'ldi janjal, bo'ldi to'polon. Hozigina talash bo'layotgan koptokka endi it ham qaramasdi, bir chekkada dumalab yotardi.

— E-e-e, — deb echki maragandek kulib yubordi Shaytonvachcha, — bularning o'yinchoq'ini tortib olish oppa-oson ekan-ku. Buncha go'l bo'lmasa bu odam bolalari...

Shaytonvachcha koptokni unaqasigayam, bunaqasigayam o'ynadi. Ustiga chiqdi, tagiga tushdi, osmonga ko'tardi, yerga tushirdi. Xullas bu o'yindan ham zerikdi.

Bundoq qarasa, nariroqda bolalar velosiped uchishyapti. Biri uchsa, ikkinchisi qarab turibdi. Hammalarining og'zi qulog'ida, qiyqirishgan, bir-birlariga muqom qilib o'yinga tushishgan... Shaytonvachcha endi ularning yoniga bordi. O'zicha navbatim kelganda mengayam berishar deb o'yladi. U hali uni bolalar ko'rishmasligini bilmasdi. Men bolalarni ko'ryapmanmi, ular ham meni ko'rishadi deb o'yildirdi. Bu bolalar ham o'yinchoqlarini Shaytonvachchaga berishmadi. Shaytonvachcha bo'lsa zorlangandek yana onasiga qaradi.

— Manovi oshqovoq o'lgurni ishlat, boya nima devdim senga, boya, — deb bolasining kallasiga to'qillatib urib qo'ydi onasi.

Shaytonvachcha boya kuchsiz bolani kuchsiz bolaga qayrab, urishtirgan bo'lsa endi kuchli ni kuchsizga qayrab, urishtirib qo'ydi. Bu yerdayam bir zumda qiyomat qo'pdi. Bolalar yig'lashgan, bir-birlaridan arazlashgan... Velosipedlari bo'lsa bir chekkada dumalagan... Shaytonvachchaga maza bo'ldi. Birini olib, birini qo'yib rosa velosiped uchdi...

— Chakkimassan, durust, — dedi ona shayton bolasining yumshoq joyiga erkalagandek shapatilab, — odam bolalarining dodini mana shunaqa qilib ber. Yo'lingga yuradiganlarni burnidan ip o'tkazib ol, gapingga kirmaganlari bilan urushtirib yurasan. O'shanda hamma narsa o'zingga qolaveradi. Bu dunyodagi hamma narsa faqat bizga bo'lishi kerak, bizga, girgitton!

— Ona, — dedi Shaytonvachcha maqtovlardan taltayib, — o'ynashga o'ynadimu, shu qorinni ochib qolgani chatoq bo'ldi-da, bir ilojini qilarsan-a, o'zing yaxshisan-ku...

Shaytonvachchani gapi og'zida qoldi. Qoshig'i aralash shundoq bir shapaloq tushirdi-ki, hozirgi mazalar burnidan chiqdi.

— Ahmoq, — dedi ona shayton darg'azab bo'lib, — tovuq miya, qorin to'g'risida ertame-tan gaplashdik-ku. Bilib qo'y, shaytonlar bolalariga bir marta dars beradi, ikki marta emas. Bunaqada odam bolalaridan nima farqing qoladi-a? Hu...

Shaytonvachcha oldiniga maqtovlardan siylanib, keyiniga tavbasiga tayanib, qorni ochib, onasiga ergashib uyiga kirdi.

## ARAZ

**(yoki Shaytonvachchaning qandoq qilib  
hamma ovqatni o'zi yeb qo'ygani)**

Bu orada qorong'u tushib, kechki ovqatga dasturxonlar yozila boshlagan edi. Shaytonvachcha onamga qancha yaqin yursam shuncha ko'p tarsaki yer ekanman, aka-ukalarga qancha yaqin bo'lsam, ovqat yer ekanman deb el burutdan shayton qoshig'ini sudrab bolalarninig yonginalaridan o'rin oldi. Oh, oh... Hojabeka chiroyli-chiroyli likopchalarda qovurilgan tovuqmi-yey, bug'da pishgan go'shtmi-yey, billur idishlarda oq, qizil sharbatlarmi-yey qo'yib dasturxonni to'lata boshladi. Erta bilan aka-ukalar dasturxonga bebismillo qo'l cho'zishganda yarim ovqatlariga sherik bo'lgan edi. Endi bo'lsa ishtahasi shu qadar karnay ediki, qo'yib bersa hamma ovqatni paqqos o'zi tushirsa, hech kim sherik bo'lmasa. Ha, aka-ukalar labini yalab qolaversa... Shaytonvachcha bu shum niyatimga qandoq erishsam ekan deb, ularni qandoq qilib chalg'itsam ekan deb bosh qotirib turgan edi, ona shayton asta-sekin qulog'iga shivirladi:

— Merovsirama, ko'zingni och, ha, ko'zingni...

— Ochdim, ochdim, — dedi Shaytonvachcha ovqatlarning hididan suzila boshlagan ko'zlarini «piska» qilib.

— Buncha ag'rayasan, aka-ukalarning qo'llaridagi qoshiqlarga qarasang-chi, ammanning buzoq'i.

— Qaradim, ona, qaradim, shuyam qoshiq bo'pti-yu, meniki ularnikini oldida naq tog'ora...

— Gap unisidamas, befahm...

— Nimasida bo'lmasa?

— Dard nimasida, balo nimasida... yaltiruyltiriga qara! Birovining qo'lida yog'ochi, birovida kumushi, anovirisida tillasi, nahot ko'rmayotgan bo'lsang, basir!

— He, o'zingam mendan battar harip ekan-san, ona. Gap qoshiqning rangidamas, rangi qorin to'ydirmaydi, bilsang...

— Sen uchun shunaqa, odam bolalari uchun unaqamas, mahmadona o'lgur. Ularga yog'ochidan kumushi, kumushidan tillasi yaxshi ko'rinadi. Ishonmasang, yog'och qoshiqlikka—nimaga seniki kumushdanmas, kumush qoshiqlikka — nimaga seniki tilladanmas deb ko'rgin!

Shaytonvachcha shunday qilgan edi, birdan aka-ukakar bir-birlarining qo'llariga o'qrayib qarab qolishdi. Kattakoni tilla qoshiqqa, o'rtanchasi kumush qoshiqqa ega chiqib, kichkin-toyga yog'och qoshiq qolgan ekan-da. Uning qoshig'i akalarinikiga o'xshab yaltir-yultir qilmasdi... Ikki o'rtada qoshiqlar jangi boshlanib ketdi. Yog'och qoshiq uyoqqa, kumush qoshiq buyoqqa uchdi. Aka-ukalar bir-birlariga o'shshayishdi-to'rsayishdi, arazlashdi. Shirin-sharbat taomlari zaharu-zaqqum bo'ldi. Shaytonvachcha aka-ukalarni urushtirib qo'yib nasibalarini bir chetdan pok-pokiza paqqos tushirdi...

Keyin odati bo'yicha «to'ydirganni qorniga» deb aka-ukalarning och qorniga bitta-bittadan shartillatib tepib chiqdi. Ular voy-voylaganicha yana qorinlarini changallab qolishdi.

Bolalarning taom yemaganidan jig'i-biyron bo'p turgan Hojabeka o'zicha fol ochdi-da dedi:



— Bir hisobda ovqat yemaganlaring ham durust bo'ldi, qorinlaring og'rib turovdi, bir kunga och qolsalaring hech narsa qilmaydi, qaytaga yaxshi bo'p qolasanlar.

— Qorin og'irshi undanmas, — dedi Hoja tishlarini kavlab — dasturxon yoniga bebismillo o'tirishdi, ha, bebismillo! Oralariga shayton kirdi. O'rgatsangiz bo'lmasmidi bundoq ona bo'lib, qachongacha men javrayman. Mana endi bebismillo uxlab ham qolishadi, hali...

— Eeee... — dedi Hojabeka, — shu qatagi gaplarni topaverasiz-da, jonimni chigarib...

— O'o'o'o'... — dedi Shaytonvachcha ko'zlari g'ilay tortib, — Hoja deganlari donolarning donosi ekan-ku. Hammasini bilib, sezib o'tiribdiya... hu onamni dushmani bo'lgan seni, hali shoshmay tur...

## **SHAYTON UYQUSI**

**(yoki Shaytonvachcha aka-ukalarni qandoq qilib uxlatmaganligi)**

Shaytonvachcha Hojani so'kdi-yu, o'zicha o'ylanib qoldi: Odam bolalari uxlash oldidan nimaga endi Ollohning ismini aytib yotishi kerak? Yo uyqidayam bir nimalarni yeb yoti-sharmikan? Unda yanayam maza-ku.

— Yo'o'o'-q, — dedi onasi uning xom xayollarini chippakka chiqarib, — kechasi ular uxlashadi, hech narsa yeyishmaydi. Faqat Ollohning ismini aytib uxlashsa, qo'yinlariga biz shaytonlar suqilib kirolmaymiz, shunga...

— E, ularni qo'ynida nima bor, hamma yoqlari shiptir. Yaxshisi o'zingni qo'yningda uxlayman, ona.

— Uxlasang-uxlayqol, — dedi ona shayton mug'ambirona iljayib.

Shaytonvachcha onasining qo'yniga kirdi-yu, ko'zlarini yumdi. Lekin qani endi ko'zlariga uyqu kelaqolsa. Naq sovuqdan qaltirab, onasining qo'ynidan qochib chiqdi.

— Voy bo'-o'-o', — dedi tishlari takillab, — buncha sovuqsan ona, nima, ichingga muz solvolganmisan, muz? Yotmaganim bo'lsin-e... yaxshisi, anovi o'choqning ichida yotaman.

Shaytonvachcha shundoq deb o'zini o'choqqa urdi. Ajabo, bu yerdaym ko'zi ilinmadi. Nuqul sovqotaverdi. Cho'g'larni nari-beri titib ko'rdiyam, bo'lmadi. Muzlaydi xolos. Oxiri o'choqdan ham qochib chiqdi. Buni ko'rib, mug'ambirlarcha kuzatib turgan ona shayton dedi:

— Sen kaltafahmning peshonang devorga tegib, burning qonamaguncha, ko'zlaring ochilmaydi. O'ng quloq, so'l quloq'ing bilan eshitib ol, biz shaytonlarni Olloh o'tdan yaratgan. Suv suvni, o't o'tni qachon isitgan, galvars?

— Nima qil deysan bo'lmasa, ey donolarning donosi mehribon ona?!

— Obbo... nimalar deding? Donolarning donosi, mehribonlarning mehriboni dedingmi?!

— Ha, shundoqsan ona. Bitta-yu, bittasan...

Shu payt kutilmaganda Shaytonvachchaning quloq chekkasiga qasira-qusir shapaloqlar tushib qoldi-yu... Ona shayton har tarsaki tushirganda jahl bilan derdi:

— Mana bunisi donoligim uchun, mana bunisi mehribonligim uchun... Nima, halitdan odam

bolalariga o'xshab paxta qo'yishni o'rgan-yapsanmi-a, zumrasha? Bilib qo'y, shaytonlarda hatto ona-bolalar o'rtasidayam ketmaydi bu. Bunaqa qorin og'ritadigan gaplaring bilan odam bolalarini avraysan, uqdingmi, yelim?

— Uqdim, uqdim, — dedi Shaytonvachcha shapaloqlardan pishib borayotgan yuzlarini silab.

— Endi bundoq qilasan, — dedi ona shayton, — boya ja el burutdan odam bolalarini puf sassiqqa chiqaruvding, o'shalarining qo'yniga kirib uxlaysan. Ha, boshqa joy yo'q!

Bu qaplarni eshitgan Shaytonvachcha asta aka-ukalarning qo'ynilariga kirib bordi... Hay-hayyy...chindan ham maza ekan-ku... u bo'lsa... Shaytonvachcha bittasining qo'ynida ozgina, ikkinchisining qo'ynida ozgina, uchinchisining qo'ynida ozgina uxlagan bo'ldi. Ha, oz-ozdan mizg'idi. O'zi shaytonlarning uyqisi shunaqa bo'larkan-da. Odamlardek shishib uxlasholmas ekan. Shayton uyqisi degan qap asli shundan ekan. Shaytonlar odam bolalariga o'xshab uxlaydigan bo'lishsa odamlarni yo'ldan urolmay qolisharkan. Keyin shayton kimning qo'yniga kirib olsa uniyam uxlatmas ekan. Agarda odam bolalari Bismillo aytib, molini-jonini Oллоhga topshirib yotsa shayton yaqiniga yo'lamas ekan.

— Vo-yey, — dedi Shaytonvachcha azbaroyi yayrab ketganidan, — bunchayam ajoyib ekan bu odamzotning bolalari. Xohlasam og'zidagi oshini tortib olaman, xohlasam qo'lidagi o'yinchog'ini. Yana bularning qo'yinlari issiq-qina mehmonxonayam ekan-a...

Shayton uyqisiga to'yib olgan Shaytonvachcha yarim kechada zerikib qoldi.

— Ona, qachon kunduzi bo'ladi? — deb so'radi sekingina.

— Kechasi turganda kunduzini nima qilasan? — ming'irladi onasi. .

— Zerikib ketyapman-da.

— Tirik o'yinchoqlarni qo'ynida yotib-a?

— E, ular o'lib qimirlashmayapti.

— Qitig'ini top esarak o'lgur, shundoq qimirlasinki, xohlasang kuldirasan, xohlasang yig'latasan... Shaytonvachcha timirskilanib aka-ukalarning qitig'ini izlay boshlabdi. Biriniki oyog'ining tagida, ikkinchisniki qo'ltig'ida, yana bittasiniki biqinidaykan. Aka-ukalar biri olib, biri qo'yib hingir-hingir kula boshlashdi. Odam uxlaganda kulsa xuddi kuydirgan kallaga o'xshab ketarkan. Ovoziyam xuddi shishaning og'zidek qul-qullab chiqarkan. Qul-qullash rosa avjiga chiqqanda katta aka uyg'onib ketdi-da qitiqlash mana bunaqa bo'ladi deb ukasini sop qoldi. Unisi men emas deb bunisini urdi. Yarim kechada bo'ldi janjal, bo'ldi to'polon... Yostiqlar otilgan, choyshablar yirtilgan, burunlar qonagan...

Shaytonvachcha tug'ilganidan beri bunaqa maza qilmagan, tekin tomoshani ko'rmagan edi. Hatto ona shayton ham puchchaygan qornini selkillatib kula-kula yotib qoldi.

— Voy-yey, — deya zorlanardi Hojabeka yig'lagudek bo'lib, — senlarning dastingdan uyqidayam halovat yo'g'a, bola emas, balo bo'ldilaring, balo!

— Ha barakalla, bu boshqa gap, — deya ona shayton birinchi marta bolasini mukofotlagandek boshini silab qo'ydi. — Ish degani bundoq

bo'пти. Odam bolalarini kechasi qanchalik uxlatmasang, kunduzi shunchalik yo'ldan urish oson bo'ladi, uqdingmi?

Shaytonvachcha «uqdim» dedi-yu, yana akaukalarining qo'yniga kirib ketdi. Shu kirgan cha salgina mizg'ib qoldi.

## TONGGI BOZOR

(yoki uning kasodga uchrashi)

Shaytonvachcha biz o'ylaganchalik mizg'imagan ekan, balki dong qotib uxlab qolgan ekan. O'ziyam itdek charchagan edi. Bir mahal tushida osmoni falakda uchib yurganmish. Shal-pang quloqlari o'rnida qanot o'sib chiqqanmish. Uchish biram qiyinmish-ey. Nuqul gavadasining og'irligi quloqlariga zo'r kelarmish. Uzilib ketay-uzilib ketay dermish, voy, biram azobmish-yey. Dod deganicha uyg'onib ketdi. Bundoq o'ziga kelsa, onasi ikki qulog'ini ikki tarafga cho'zma qilib cho'zib yotibdi. Shaytonvachcha dik etib o'rnidan turib ketdi.

— Ja, a?! — dedi onasi naq yemog'da-ichmog'da bo'lib, — salgina maqtovg'a taltayib ketdilar mi odam bolalariga o'xshab-a?

— Nima qil deysan, bo'lmasa... suyushingdan urushing, urushingdan so'kishing ko'p.

— Dard nima qil deysan, balo nima qil deysan, sop qolaymi?

— Yo'q ona, ertametandan kerakmas, shundog'am ko'payib ketyapti...

— Shaytonmisan shayton bo'lgin-da bo'lmasa, lo'q o'lgur, yotishing nimasi cho'chqaga

o'xshab. Hozir tonggi bozor boshlanadi-ku, g'aflat!

Onasining bu so'zlaridan Shaytonvachcha hushyor tortdi. Nimagadir tomoqlari taqillab, qoshig'i shaqillab ketdi. Atrofga ochko'zlik bilan qaradi va onasidan so'radi:

— Bozor deganingni yesa bo'ladimi, ona?

— Bo'lganda qandoq, asli u anovi odam bolariga atalgan. Ularning tosh qotib yotishlarini qara. Yotishovirsin, kechasi uxlatmay xo'p ish qilding-da. Tonggi bozor o'zingga qoladigan bo'ldi, ha, o'zingga! Lokin bola, kallani ishlat, ha, kallani. Ishlatolmasang ayash yo'q, kallangni sapchadek uzib tashlayman, boringdan — yo'g'ing...

Ona shayton dag'dag'asini tugatmayoq ostonada bitta ketvorgan farishta ko'rindi. Bundoq qarasa, uning bir qo'lida ketmonu, bir qo'lida barkash to'la oltinmish. Farishta ovozi ni baralla qo'yib dermish:

*Kep qoling, op qoling...*

*Kimga g'ayrat ketmoni,*

*Kimga oltin xirmoni...*

*Kep qoling, op qoling...*

Shaytonvachcha ikkilanib qoldi. Ketmonni olsammikin, oltinnimi? Ikkoviniyam olaversanmikan. E, g'ayrat ketmoningni boshimga uramanmi, oltinni ber bizga, oltinni, to'rt kunlik dunyoda yashab qolaylik, deb o'zini barkashdagi oltinga urdi. Biroq oltinlar Shaytonvachchaning qo'llari tegar-tegmas kulga aylandi-qoldi. Shaytonvachcha kulni boshidan sohib, hayron bo'lib turgan edi, yana bitta farishta ko'rindi. Uning bir qo'lida baxt qushi-yu, bir qo'lida yoqut toshlar qadalgan poshsholik taxti. U nuqul:

*Kep qoling, op qoling,  
Kimga baxtu, kimga taxt...  
Kep qoling, op qoling,  
Sotamanu ketaman, —*

dermish.

— Ey, — dedi Shaytonvachcha shoshganicha, — baxt qushi o'zingga siylov, taxtni ber, menam bir davru-davron suray.

U shunday hirs bilan o'zini taxtga urdi. Buni qarangki, taxt ham qo'llari tegar-tegmas kulga aylandi. Baxt qushi bo'lsa «parr» etib uchib ketdi. Bechora yana quppa-quruq qoldi. «Endi hushyor bo'laman» dedi u o'zini-o'zi kechirolmay. Shu payt eshikda uchinchi farish-ta paydo bo'ldi. Uning bir qo'lida ulkan bir kitobmish. Bir qo'lida meva to'la savatmish. U nuqul dermish:

*Kep qoling, op qoling...  
Kimga Ollohning kalomi,  
Kimga jannatning taomi,  
Kep qoling, op qoling...*

Shaytonvachcha bir zum nima qilarini bil-may qoldi. Nimaga deganda kitobdan shunday bir nur taralar emishki, zam-zamasidan esi og'ay dermish. Lekin bari bir nafsi g'olib kelib, savatdagi sarxil mevalardan o'zini tiya olmadi. Ha, og'zidan so'lakayi oqib o'zini mevaga urdi. Ular shu zahoti tuproqqa aylandi-qoldi. Nimaga deganda jannat mevalari shaytonga emas, odam bolalariga atalgan.

Shunday qilib, farishtalarning tonggi bozori tugadi. Shaytonvachcha lab-lunjini yalaganicha hech narsasiz qolaverdi. Oh dedi Shaytonvachcha ichidan zil ketib, o'lganim shu endi, onam boshimni sapchadek uzib tashlaydi endi. Shundoq bozordan mir quruq chiqdim-a. E, attang...

— Ha, — dedi ona Shayton tirjayganicha, — ja suvga tushgan mushukdek, shalpayib qolding. Nima bo'ldi?

— E, ko'rib turib so'raysan-a ona, — dedi Shaytonvachcha qo'rqan oldin musht ko'tarar qilib, — ishlamagan bu kallani endi sapchadek uzib tashlayver, menga uning keragi yo'q...

— Uzib tashlasam boshqasini qattan olasan?

— Nima qilishim kerak endi bo'lmasa, boshida ketmonni olishim kerakmidi?

— Ketmonni olganingda Shaytonvachchadan odamvachchaga aylanib qolarding. Ishlay-ishlay yag'ring chiqib, bir kuni o'lib ketarding. O'sha ketmon bilan go'ringni qazishib, lahatga tiqishardi.

— A? — dedi Shaytonvachcha sal o'ziga kelib, — unda to'g'ri qilibman-da, ona. Rostini ayt baxt qushini tanlaganimda poshsho bo'larmidim?

— Bo'larding!

— Voyyyy! Nimaga unda ta'zirimni bermay, ayab o'tiribsan. Shundoq baxtni qo'ldan beribman-ku. Senam mening orqamdan bir nimalik bo'p qolarding. Ko'tarilib ketsa onasini tanimay qo'yadi, deb qo'rqdingmi?

— Ungamas. Bilsang dunyoda shaytonlar saltanati ko'p bo'lgan. Bunga tarixda misollar talay. Biroq bizning saltanatimiz umri qisqa bo'lgan. Ko'pi yetti kun-u, yetmish yildan oshmagan. Keyin asfalasofilinga qiya bo'lib ketgan. Seniyam poshsholiging bari bir o'shanaqa bo'lardi-da.

— Unda yanayam to'g'ri ish qipman-da, —



deya Shaytonvachcha yanayam qaddini ko'tardi. — Kallam ishlamadi desam, balodek ishlabdi-ku. Shu desang ona, oxirgisida kitobni ol-sammikan deb ikkilanuvdim, olmaganim yaxshi bo'pti-a?

— Ha, Azozil bobomizning o'zi saqladi seni, u kitob Ollohning kitobi edi. Olganingda bormi iymon keltirib, musulmon bo'p qolarding va abadiy shaytonlarning dushmaniga aylanarding. Kallang qurgur ishlamadimas, rosa ishladi. Odam bolalariga buyurilgan bozorni birini kulgaga, birini tuproqqa aylantirding.

— Boplapman-da, ona, zo'r ekanmam-da o'zimam, — deb Shaytonvachcha ko'kragiga urib qo'ydi.

— Imtihondan zo'r o'tding, bahoying «5»!